
FARG'ONA VILOYATI HOKIMLIGI RESPUBLIKADA MAHALLIY DAVLAT
HOKIMIYATI ORGANLARI O'Rtasida Axborot va Kiberxavfsizlik
Bo'yicha 2022 Yil II Choragi Yakuni bilan Birinchi o'rinni egalladi
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 15 iyundagi PQ-4751-sonli hamda Vazirlar
Mahkamasining 2021 yil 15 iyundagi 373-sonli qarorlarida yuklatilgan vazifalarga muvofiq,
"Kiberxavfsizlik markazi" tomonidan davlat va xo'jalik boshqaruvi hamda mahalliy davlat
hokimiyati organlarida axborot va kiberxavfsizlikning ta'minlanganligi holati 2022 yil II
choragi yakuniy natijalari bo'yicha reyting baholash o'tkazildi.

Farg'ona viloyati hokimligi reytingda mahalliy davlat hokimiyati organlari o'rtasida yetakchiga aylandi va eng himoyalangan hokimlik deb topildi, axborot darajasi va kiberxavfsizlik darajasi 94,6 ballni tashkil etdi. Kiberxavfsizlik markazi tomonidan baholangan O'zbekistondagi barcha 134 ta davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari o'rtasida esa 6-o'rinni egalladi.



Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating

[Facebook](#), [Telegram](#), [Facebook](#), [YouTube](#), [Instagram](#)

2022-08-01 19:07:19